

## BOSHLANGICH TA'LIM DARSLARIDA O'YIN METODLARIDAN FOYDALANISH

**Norboyeva Nargiza Gulmatovna**

*Surxondaryo viloyati Uzun tumani 1-umumiy o'rta ta'lim  
maktabi boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada didaktik o'yinlar haqida, ularning ahamiyati, shuningdek boshlangich ta'limda didaktik ta'limiy o'yinlardan foydalanish haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Didaktik o'yinlar, boshlang'ich ta'lim, ta'limiy o'yinlar, bolalar, pedagog, zamonaviy o'yinlar.*

Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, insoniyat hayotiga turli yangiliklarning kirib kelishi ta'lim sohasida ham bir qator o'zgarishlar qilinishini taqoza etmoqda. Hozirgi kunda ta'lim sohasida erishilgan yutuqlarni saqlagan holda, bir xillikdan, bir qolipga tushib qolishdan saqlanmoq zarur.

Ta'limning kishi xotirasini rivojlantirishga asoslangan turidan inson tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, o'quvchilar egallagan bilimlarni amaliyotda qo'llash, ularda amaliy ko'nikma va malakalar hosil etishga qaratilgan turiga o'tishga harakat qilish shu kunning talabi. Shunga erishilsagina vatanimiz kelajagi bo'lgan yosh avlod tarbiyasi oldiga qo'yilgan vazifa oqilona hal etilishi mumkin.

Yurtimizda ta'lim sifatini yanada oshirish, uni keng targ'ib qilish maqsadida bugungi kunda ta'lim jarayonida turli xil pedagogik texnologiyalardan foydalanib kelinmoqda. Bu dars jarayoniga yangicha innovatsiyalar bilan yondashmoq deganidir.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad dars jarayonini har taraflama mazmunli qilish, bolalarning qiziqishini oshirishdan iborat. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda bolalarning bilimni oshirish, dunyoqarashini kengaytirish, dars jarayonini tez va oson o'rganish maqsadida axborot komunikatsiya texnologiyalari, pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayoni o'quvchilar ta'limiy faoliyatida ham, o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida ham muhim davr hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'limiy o'yinlarga bo'lgan munosabati ancha jiddiy. Ularning ko'pchiligi bir qator o'yinlarni boshlang'ich sinflar darslarida foydalanish uchun qulayligini aytib o'tdilar.

Ammo bu o'yinlar deyarli bir xil edi. Bundan tashqari «Didaktik o'yinlardan darsning qaysi qismida ko'proq foydalanasiz?» deb so'raganimizda, 10 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchisi «Asosan dam olish daqiqalarida hamda o'tgan mavzuni mustahkamlashda» deb javob berdilar.

Vaholanki, to'g'ri foydalanilgan didaktik o'yinlar boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida yangi mavzuni bayon qilishda hamda mustahkamlashda eng qulay metod hisoblanadi.

Zero, o'yin bilimlarni o'zlashtirish yo'lidagi har qanday mashaqqatlarni osongina engib o'tishga, qiyin jarayonni o'yinlar bilan uyg'unlashtirgan holda engillatishga yordam beruvchi ta'lim usulidir. Darslarning shu zaylda tashkil etilishi barkamol shaxs tarbiyasida muhim qadam bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida uyushtiriladigan didaktik o'yinlar ham o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish vositasi sanaladi. Didaktik o'yinlarga dam olish yoki vaqt o'tkazish vositasi emas, balki ta'lim beruvchi faoliyat deb qarash lozimdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun didaktik o'yinlar bilim olishning faollashtiruvchi ish turlaridan biri bo'lib, o'quvchilarda mustaqil tafakkur, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantiradi. O'quvchilarning o'qish darslariga qiziqishini o'stiruvchi vositalardan biri didaktik o'yin hisoblanadi. O'yinning maqsadi ta'lim olishga, fanga, kitobga qiziqish uyg'otishdir. Didaktik o'yin bolalarda bilish jarayoniga jonli qiziqish uyg'otadi va ma'lumotlarni qabul qilishga yordam beradi.

Bu kabi o'yinlar bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirilishiga, chuqurlashtirilishiga, tartibga solishga, qiziqish va qobiliyatlarini rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. O'z navbatida bu o'quvchilarda go'zal va boy ona tilimizdan g'ururlanish, axloqiy qadriyatlarimizni e'zozlash kabi sifatlarni shakllantiradi. O'yin elementlari didaktik vazifalarni bolalardan yashirishga xizmat qiladi, shu tariqa ular uchun qiyin bo'lgan bilim olish jarayonini yengillashtiradi.

Ta'limiy mazmunga ega bo'lgan o'yinlardan, avvalo, mavzuga oid oddiy qiziqarli savol-javoblardan darsning ma'lum qismida foydalanish lozim. Shu tarzda boshqotirma, tez aytish kabi o'yinlar muntazam o'tkazib turilsa, o'quvchilarda ma'lum bir ko'nikmalar to'planib boradi. Shunga ko'ra o'quvchilar egallashi shart bo'lgan ko'nikma va malakalar: tasvirlay olish, tushuntira olish va bashorat qila olish qobiliyatini hosil qiladi. Dars jarayonida o'yinlarni to'g'ri tashkil etish va o'tkazishda vazifalar, qoidalar va ularning natijalarini tahlil qilish bosqichlarini aniq belgilab olish lozim.

Ta'limiy o'yinlarning turli xil tasnifi mavjudligi xususida ishning birinchi bobida to'xtalib o'tgan edik. O'yinlar mazmuni va amalga oshirish shakliga ko'ra sinflarga ajratilgan edi.

V.A. Suxomlinskiy shunday deb yozgan edi: "Keling, o'yin bolaning hayotida qanday o'rin egallashini batafsil ko'rib chiqaylik ... Uning uchun o'yin eng jiddiy masala. O'yinda bolalarga dunyo ochiladi, shaxsning ijodiy qobiliyatlari ochiladi. Ularsiz to'liq aqliy rivojlanish bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas". Didaktik o'yin ta'lim va tarbiyaning boshqa shakllari bilan birlashtirilgan va o'zaro bog'liq bo'lgan yaxlit pedagogik jarayonning bir qismidir. O'yin qiymatini qadrlash, V.A.Suxomlinskiy yozgan: "O'yinsiz to'laqonli aqliy rivojlanish mavjud va bo'lishi ham mumkin emas. O'yin - bu ulkan yorqin oyna bo'lib, u orqali bolaning ma'naviy dunyosiga atrofdagi dunyo haqidagi g'oyalar va tushunchalarning hayot beruvchi oqimi quyiladi. O'yin-bu qiziquvchanlik va qiziquvchanlik uchqunini yoqib yuboradigan uchqun "

Bolalarning qiziqishi didaktik o'yin o'yindan aqliy vazifaga o'tadi. Didaktik o'yin bolalarning aqliy faoliyatini tarbiyalashning qimmatli vositasi bo'lib, u aqliy jarayonlarni faollashtiradi, o'quvchilarda bilish jarayoniga katta qiziqish uyg'otadi. Unda bolalar katta qiyinchiliklarni bajonidil yengib o'tadilar, o'zlarining kuchli tomonlarini mashq qiladilar, qobiliyat va ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Bu har qanday o'quv materialini qiziqarli qilishga yordam beradi, o'quvchilarda chuqur qoniqish uyg'otadi, quvonchli mehnat kayfiyatini yaratadi va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini osonlashtiradi.

Dars jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar, enerjayserlar, o'yin mashqlari bu jarayonni yanada qiziqarli, mazmunli qiladi, bolalarda quvnoq, mehnatkash kayfiyatni yaratadi, o'quv materialini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam beradi, ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi. Didaktik o'yinlar bolalar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish uchun qulay bo'lgan shart-sharoitni paydo qiladi va bilish uchun qiziqishni rivojlanishiga ko'maklashadi. Didaktik o'yinlarning natijaviyligi, birinchidan, ulardan tizimli ravishda foydalanishga, ikkinchidan, o'yinlar dasturining oddiy didaktik mashqlar bilan birgalikda maqsad sari yo'naltirilganligiga bog'liq. Bilish faolligini rivojlantirish muammosini hal etishda, o'quvchining mustaqil tafakkurini rivojlantirish asosiy masala deb hisoblanishi zarur. Har bir didaktik o'yinni boshlashdan oldin o'quvchilarga o'yinning qoidasi, mazmuni, yakuni nimadan iborat ekanini o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi. O'quvchilar uni tushunib, anglab, shu asosda harakat qiladilar.

Quyida o'qish darslarida qo'llanilayotgan hamda ijobiy natija berayotgan bir necha didaktik o'yinlardan namunalar keltiramiz

«Hammualiflar» o'yini. O'qituvchi matnni o'qiydi yoki o'quvchilar matn bilan mustaqil tanishadilar. Topshiriq:

– Matnning davomini o'ylab toping. Kelgusida qanday voqealar sodir bo'lishi mumkin ekanligini o'ylab ko'ring.

– Qahramonlardan qaysi biri voqealarga ko'proq ta'sir ko'rsatgan? U ishtirok etmasa asar mazmuni qanday o'zgaradi?

– Sujetning rivojiga qaysi voqea ta'sir qilgan?



"Bu qaysi shakl?" o'yini O'yinning maqsadi: Geometrik shakllar bilan tanishtirish. Ularga ta'rif berish malakasini oshirish. Og'zaki nutqini rivojlantirish. O'yin jihozi: Konvertlarga solingan geometrik shakllar. O'yinning borishi: Dorskaga bir o'quvchi chiqadi. Konvertdagi shaklni qaysi ekanini ko'rib olib, o'quvchilarga murojaat qiladi. "Qo'limdagi geometrik shaklning uch tomoni uch burchagi bor, uning tomonlari xar xil uzunlikda bo'lishi ham mumkin. Bu qaysi shakl?". Shaklga to'g'ri ta'rif bergan va shaklning nomini to'g'ri topgan o'quvchi rag'batlantiriladi. Demak, kichik maktab yoshida, o'yinlardan bolalarning o'quv va mehnat faoliyatini yengillashtiruvchi va tashkil etuvchi vosita sifatida foydalanish mumkin. Ta'lim jarayonida o'yin elementlari o'quvchilarda ijobiy emotsiyalarni yuzaga keltirib, ularning faolligini oshiradi. O'yin faoliyati bolalarni ruhiy hayotining barcha tomonlarini shakllanishida, masalani qo'yilishida va harakatlanish usullarini tanlashda yordam beradi. Bolalarning aqliy faoliyatini ham juda yuqori darajaga ko'taradi va darslarga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.



«Multfilm chizamiz» o'yini. O'quvchilar guruhlariga bo'linadilar. Kartochkalarda yozilgan topshiriqlarni oladilar, ularni bajaradilar va fikr almashadilar. Masalan, Aziza Ahmedovaning «Qish ertagi» mavzusini o'tishda foydalanish mumkin. Topshiriq:

– «Qish ertagi» matnini o'qimagan bolalar ertak mazmunini tushunishlari uchun qanday suratlar chizish maqsadga muvofiq?

– Chizilgan suratlar orasidan ertak mazmunini tushunish uchun yordam beradigan eng asosiylarini tanlab oling.

– Suratlarining tagiga asardan tanlab olib yoki o'zingiz o'ylab topib ularga mos yozuvlarni yozing.


«So'zdan so'z yasash» o'yini. O'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga, so'z zaxirasini boyitishga yordam beradi. O'yinning sharti: O'quvchilar 3 guruhga bo'linadilar. Mavzuga oid bir necha so'z yozib qo'yiladi. So'zdagi harflardan

foydalangan holda, boshqa harf ishlatmasdan, o'zgacha ma'noga ega bo'lgan so'zlarni topib yozish taklif qilinadi.

Masalan: «Donishmand yigit» ertagida donishmand so'zidan so'zlar yasashadi.  
Masalan: ona, ish, don, shon, nish, dam, dada, nishon, mashina.



«Domino» (So'z top) o'yini. Bu o'yin darsning kirish yoki mustahkamlovchi qismida o'tkazilishi mumkin. O'qituvchi matn ichidan biron so'z aytadi, o'quvchilar davom ettiradilar. O'qituvchi boshlagan so'z qaysi harfdan tugasa, o'quvchi shu harfdan boshlangan so'zni matn ichidan topib aytishi kerak. Masalan: «Toshkent» (Erkin Malik) matnidan o'qituvchi Toshkent so'zini aytsa o'quvchilar Taxtapul – Labzak – Ko'lob – Balx – Xiva kabi so'zlarni topadilar.



Dars o'yishda didaktik o'yinli texnologiyalardan foydalanganda dars davomida didaktik jarayon ketadi. Didaktik jarayon bosqichlarini yolga qoyish o'quvchilarning bilimni belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan o'qitish metodlari orqali tashkil etiladi. Hozirgi davrda pedagoglar tomonidan mazmun va qoidalarga ega bolgan o'yinlar yaratilmoqda.

Bola shaxsida ma'lum sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan o'yinlarda aniq qoidalar berilgan boladi. Didaktik o'yinning eng muhim elementi uning qoidasi

hisoblanadi. Didaktik o'yinlar vositasida o'quvchilarda bilimga qiziqishni uygotish uning qiziqishlariga tayanib tashkil etilsa samarali bo'ladi. Bunday hollarda bolada doimo yangilklar bilishga ishtiyoq uygonadi. Bilishga qiziqishni muntazam rivojlantirish va mustahkamlash kichik maktab o'quvchilarining o'qishga ijobiy munosabatlarini tarbiyalaydi, ozlashtirish darajasini oshiradi. Har bir dars jarayonida didaktik oyinlarni o'quvchilar qiziqish bilan bajaradilar, mustaqil fikrlashni o'rganadilar. Didaktik o'yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida oquv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bolan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar shakllanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. G'ulomova X. v.b. 4- sinfda ona tili darslari. "O'qituvchi". T. 2012
- 2 Yoldoshev J., Usmonov S. «Pedagogik texnologiya asoslari» T.2004
3. Ibrohimov X.I. ,Abdullayeva SH.A. "Pedagogika nazariyasi" Toshkent 2008
4. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma Toshkent 2021
- 5 Ibragimov R. Boshlang'ich maktab o'quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. T -2001
- 6.Qodirova F., Qodirova M. Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent – 2006 yil.
7. Boboyeva Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. - Toshkent:O'qituvchi, 2017